

---

## XUSH KELDINGIZ, HOJILAR: YUZLARDA ULUG' ZIYORAT FAYZI, SHUKRONALIK HISSI VA YURT SOG'INCHI

Bugun Oltiariqlik 84 nafar hojilarning barchasi Islom dinining beshinchi ruknini ado etib, sog'-omon yurtimizga qaytib kelishdi. Ular "Osiyo" tantanalar majmuida tuman hokimligi vakillari va tuman faollari, hojilarning yaqin insonlarining hurmat-ehtiromi bilan kutib olindi.



- Shu kunlarga yetkazganiga Allohga ming shukr, Muqaddas Haj ziyoratiga borish nasib qildi, - deydi Chordara mahallasida yashovchi Akmaljon Ishmatov. - Ziyorat amallarini qiynalmay ado etib, yurtimizga, oilamiz bag'riga eson-omon yetib keldik. Biz uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib bergan Prezidentimizga, viloyat hamda tuman hokimligiga katta rahmat. Ilohim, yurtimiz tinch, dasturxonimiz to'kin bo'lsin. Yaratgan Egam, ziyoratimizni o'z dargohiga qabul qilgan bo'lsin.



Hojilar yuzida islomning beshinchi rukni ado etilgani fayzi, shukronalik hissi va yurt sog'inchi ifodasi ufurib turibdi. Ko'tarinki kayfiyatda qaytgan ziyoratchilarimiz yuqori saviyada tashkil etilgan ziyorat uchun barcha tashkilotchilarga minnatdorchilik bildirdilar.

### [Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-22 10:40:09